

## **SUDGA OID PSIXOLOGIK EKSPERTIZANING TARIXIY RIVOJLANISH XUSUSIYATLARI**

**Elov Ziyodullo Sattorovich**

*Osiyo xalqaro universiteti professori,*

*Psixologiya fanlari doktori (DSc)*

*elovziyo2021@gmail.com*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada hozirgi kunga qadar chuqur izlanishga va qator ilmiy tadqiqotlar o‘tkazishga, shuningdek juda ko‘plab munozara va baxslarga sabab bo‘layotgan, aniqlik va diqqat, juda katta bilim talab etilayotgan, sudga oid psixologik ekspertiza soxasining asl xususiyati va ushbu jarayonning qanday tarixga ega ekanligini tahlil qilingan bo‘lib, ushbu soxadagi ulkan o‘zgarishlar qilish, aniqliklarni zamonaviy texnologiyalar bilan yanada mukammlashtirish, bugungu zamonning muhim talabi ekanligi keng yoritib berilgan.

**Kalit so‘zlari:** Sud ekspertizasi, psixolog, ekspert, barmoq izi, ekspertiza turlari, sudlov jarayoni, sudyu, affekt, depressiya.

**Kirish.** XXI asrda inson va uning baxtli hayot kechirishi muammosi har qachongidan ham dolzarb masalaga aylandi.

Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev aytganlaridek: “....., biz har bir fuqaro o‘zining kuch va imkoniyati, qobiliyati va salohiyatini ro‘yobga chiqarish uchun keng sharoit va imkoniyat yaratib berishimiz kerak<sup>1</sup>”. Bu esa jamiyat a’zolaridagi ijtimoiy psixologik muammolarni o‘z vaqtida yuqori darajada yechimini topishni talab qiladi.

Biz bilamizki har narsani ibtidosi va intihosi bor, ammo ilm-fan ma’rifatda aslo yakun bo‘lmaydi. Qancha bilib o‘rganganiz qadar shuncha ko‘p yangiliklar yaratishimizni va albatta jamiyatga foydamiz tegishini anglab yetamiz. Ushbu bilimlar orqali kelajak avlodlarga, juda katta ma’nnaviy ozuqa yetkazib beramiz. Hozirgi kunda o‘rganilayotgan ba’zi bir soxalar uzoq bir davrlarni bosib o‘tganini ko‘rishimiz mumkin. Ammo, qaysidir davrlarda ma’lum sohalardagi tanazzul tufayli, rivojlanish va o‘sishda susayish keying davrlarda o‘zining kamchiliklari bilan taraqqiyotga ta’sir etayotganini ko‘rishimiz mumkin. Bugun bu kabi sohalarda orasida o‘zgarishga va rivojlanishga yanada muhtoj bo‘lgan sudga oid psixologik ekspertiza jarayoni haqidagi ilmiy ma’lumotlarni tadqiq qildik.

**Asosiy tahlillar:** Bugungi kunda, yuridik sohaning kun sayin rivojlanib borayotganligi natijasida, uning qator tarmoqlari shu jumladan yuridik psixologoya ham rivojlanmoqda. Natijada sohaning muammolari yuzasidan turli amaliy tadbirdorda sifat bosqichiga erishish uchun mavjud tajribalarga tayanib, mahalliy mutaxassislar tomonidan bir qator masalalar qayta ko‘rib chiqilishi lozim<sup>2</sup>:

1. Bugun Jahon psixologiyasida qo‘llanilib kelayotgan “Standartlar”ga tayanib, yuridik psixologiyada psixologik metodikalardan foydalanish borasida mahalliy muhit uchun aniq ko‘rsatmalar ishlab chiqish;
2. Mahalliy sharoit uchun qo‘llanishi lozim bo‘lgan yuridik psixologiya sohasidagi qo‘llanmalarni nashr ettirib borishni yo‘lga qo‘yish;
3. Yuridik psixologiya imkoniyatlaridan foydalanish bo‘yicha amaliy qo‘llanmalar ishlab chiqish;
4. Mutaxassislar tayyorlash jarayonida Yuridik psixologiyaning boshqa tarmoqlari bo‘yicha

<sup>1</sup> Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. T.: O‘zbekiston. 2016. 23-bet.

<sup>2</sup> Elov Z.S. Yuridik psixologiya. B.: 2023 Kamolot nashriyoti 238-b.

ularning standartlari masalasi uchun alohida mashg‘ulot mavzularini ajratish lozim.

Jamiyat rivojlanishining hozirgi bosqichida, fanlar tizimida psixologiya fani muhim ahamiyatga ega. Akademik B.M. Kedrovning fikricha – psixologiya o‘zlashtirilayotgan gumanitar, aniq va maxsus fanlarning markazini tashkil etadi.

Huquqni muhofaza qilish faoliyatida psixologik bilimlar quyidagi jarayonlarda qo‘llaniladi:

-  shaxsni to‘g‘ri diagnostika qilish;
-  insonga nisbatan individual yondashish;
-  taktik usul va qarorlarni tanlash va ishlatish;

Yuridik sohada shaxsni mana shu kabi jarayonlar bilan tadqiq qilish va o‘rganish sudga oid psixologik ekspertizada amalga oshiriladi.

Asli sudga oid psixologik ekspertiza biz uchun nimaga kerak degan savol paydo bo‘ladi. Javob shundaki, aniq tashxis, tahlil, bir insonni hayot mamoti uchun ham vijdonan kurash olib borish uchun, bir insonni hayotini asrab qolish uchun ham bizga sudga oid psixologik eksperrtiza kerak.

Sud psixologik ekspertizasi bu – sudda huquqiy masala uchun ishlatiladigan baxs yoki munozara. Shu sababli sudga oid psixologik ekspertizasi bu – sud sharoitida ilmiy psixologik nazariyalar haqidagi suhbat yoki munozara olib borish jarayoni hisoblanadi.

Sudga oid psixologik ekspertiza nomi ya’ni argumentativ mashq degan ma’noni anglatuvchi sud tibbiyoti sifatdoshidan kelib chiqqan bo‘lib, uning ingliz tilidagi eng qadimgi ma’nosи sudlarga tegishli, qo‘llanilgan yoki sudlarga yoki ommaga muhokama va muzokaralarga mos keladi. Ingliz tilidagi ushbu so‘z, lotincha sud tibbiy so‘zidan olingan bo‘lib bozor yoki shakli, ommaviy degan manoni anglatadi, bu esa o‘z navbatida lotincha forum so‘zidan kelib chiqqan bo‘lib bozor joyi, degan ma’noni anglatadi.

Sudga oid psixologik ekspertiza tarixiga nazar soladigan bo‘lsak, bu yo‘nalishdagi dastlabli ishlar milodiy I-asrning boshlarida Rimlik notiq va huquqshunosh Kvintilian tomonidan, aybsiz kishini oqlash uchun asosiy sud ekspertizasidan foydalanganligi ma’lum<sup>3</sup>. Rim modeli zamonaviy sud va huquq tizimining asosini tashkil qiladi. Shunday qilib, qadimgi Rimda dalillarni tekshirishda ilmiy tamoyillar qo‘llash ajablanarli emas. Ammo, G’arbda Rim imperiyasining qulashi bilan sud ekspertizasini qo‘llanilaishini keying ming yillikdagi jarayoni to‘xtab qolgan desak mubolag‘a bo‘lmaydi.

Milodning V-asrlarga borib, German va slyavyanlar jamiyatida birinchi bo‘lib o‘lim sabablarini aniqlashda tibbiy mutaxassislarni jalb qilish to‘g‘risida qonun chiqarilgan edi. Bu qonunga asosan tibbiyot hodimlarini alohida sud ishlariga jalb qilishini talab etilgan.

Tarixiy ekspertlarni izlanishlari natijasida VI-asrlarda Xitoy mutaxassislari ham ushbu sohada yaxsagina bilimlarga ega ekanligini aytib o‘tish lozim. Ushbu faktlar bo‘yicha o‘sha davrdagi muhim qimmatga ega bo‘lgan asar Ming Yuen Shin Lu nomli muallifning kitobida eslab o‘tilganligini manbalar ko‘rsatib o‘tadi.

VII-asrda barmoq izlaridan indentifikasiya qilish vositasi sifatida foydalanish tushunchasi birinchi marta qo‘llanildi. Tarixiy malumotlarga ko‘ra savdogarlar o‘zlaridan qarzdor bo‘lgan mijozlarini kimligini uning barmoq izlarini hisob qog‘oziga olish orqali tekshirishga musharraf bo‘lgan. Keyinchalik esa bu metodikani sudyalar inkor etib bolmaydigan dalil sifatida qabul qilishgan.

Mana biz hozirgi zamonda qo‘llab kelayotgan barmoq izlari aslida qanchalik tarixiy jarayonlarni bosib o‘tganligini guvohi bo‘lyapmiz aslida oddiygina savdogarlarni mijozlar bilan

<sup>3</sup> Elov Z.S. Yuridik psixologiya. B.: 2023 Kamolot nashriyoti 238-b.

N.T.Tojiyeva., Z.S.Elov., Voyaga yetmaganlarda sudga oid psixologik ekspertiza o‘tkazishning psixologik xususiyatlari. Pedagogik va psixologik tadqiqotlar. 2024 №1

o‘rasidagi o‘rnatilgan bu kabi muloqot, bugungi davrda ham foydalanib kelinayotganligini ko‘rishimiz mumkin.

Eramizdan avvalgi 1000-yilga kelib, o‘sha davrlarda Xitoy, Bobil, Fors va yangi Shotlandiya kabu joylarda rasmiy hujjatlarni imzolashda ham barmoq izlarini ishlata boshlashgan.

Bu birgina barmoq izi ekspertizasini qisqacha tarixiy jarayoni hisoblanadi. Biz izlanish olib borayotgan ushbu soxada juda ko‘plab ming yillik tarixga ega bo‘lgan metodikalar borligini ko‘rishimiz mumkin. Balki ba’zi bir metodikalarini hozirgi zamonaviy texnologiya asrida ham tatbiq etib uni zamon bilan hamfikr bo‘lgan holda o‘rganib chiqishimiz yoki yanada chuqurroq o‘rgangan holda bu sohada yanada ulkan yutuqlarga erishishimiz mumkin.

Bu tarixiy ma’lumotlardan tashqari, bugun zamonaviy ekspertiza jarayonida barmoq izlari bo‘yicha yirik olim, sohaning otasi sifatida, AQShning Takoma shtatidagi indefikasiya byurosi (*HM Smit barmoq izi*) rahbari Frencis Galton<sup>4</sup> hisoblanadi. Ko‘pgina malumotlarda bu insonni barmoq izlari bo‘yicha bugun dunyodagi eng asosiy shaxs sifatida qaraladi.

**Xulosa va tahlillar:** Yillar davomida o‘rganilib asta-sekin taraqqiy eta boshlangan bu soxa hali ham rivojlanib bormoqda. Shu o‘rinda o‘quvchida Sudga oid psixologik ekspertiza bo‘yicha tadqiqotchi kim degan savol paydo bo‘lishi tabiiy jarayondir.

Arximed ehtimol birinchi sudga oid psixologik ekspertizani asoschisi bo‘lgandir. Bir tarixiy ma’lumotda aytishicha, qiroq mahaliy zargardan maxsus oltin toj buyurtma qiladi, ammo, bu sof oltin emas deb guman qilgan. U Arximeddan aldanganmi yoki yo‘qligini aniqlashini so‘raydi, lekin u tayyorlangan tojda biror bir sinov o‘tkazmasdan, unga zarar etkazmasdan tekshirilishini xoxlaydi.

Yuqorida aytib o‘tilgan afsonaga qo‘sishimcha ravishda sudga oid psixologik ekspertiza Xitoyda vujudga kelgan degan taxmin ham borligini unitmaslik lozim.

Yani bir dehqon o‘z dalasida o‘roq bilan o‘ldirilgan. Tergovchilar tomonidan barcha dehqonlarning o‘roqlarini yig‘ib olishadi. Bir necha soniyalardan keyin bir o‘roq chivinlarni o‘ziga tortayotganligini ko‘rishadi va aynan shu o‘roq qotillikda ishlatilganligini va uning sohibi qotil ekanligini aniqlashadi.

Davrlar o‘tgani sayin, bu soxada ham asta-sekin rivojlanishlar bo‘ldi, 1247-yillarda Xitoyda sudga oid psixologik ekspertiza bo‘yicha birinchi darslik nashr etilgan bo‘lib, u shubhali o‘limini tekshirishda amal qilish kerak bo‘lgan tartiblarini hujjatlashtiriladi.

Yana bir ma’lumotga qaraganda miloddan avvalgi 44-yilda Yuliy Sezar o‘ldirilganidan keyin davolovchi doktor jasaddan topilgan 23 ta jaroxatdan faqat bittasi hallokatli ekanligini aytib o‘tganligini ham ko‘rishimiz.

Yuqoridagilarga asoslanib va boshqa qator juda ko‘plab manbalar o‘rganilib chiqqan holda, sudga oid psixologik ekspertiza naqadar uzoq yillik tarixiga ega ekanligini ham korishimiz mumkin.

Sud – psixologik ekspertizasi predmeti shundan iboratki, bu yerda ayblanuvchi, sudlanuvchi, guvoh va jabrlnuvchi ko‘rsatmalarining to‘g‘ri yoki noto‘g‘riligini aniqlash emas. Bu tergov va sudning vakolatlariga kiradi.

Sud – psixologik ekspertizasining asosiy vazifasi psixik jarayonlarning kechishi natijasida, so‘roq qilinuvchi shaxsnинг individual xususiyatlariga ko‘ra, isbot uchun tegishli bo‘lgan

<sup>4</sup> Elov Z.S. Yuridik psixologiya. B.: 2023 Kamolot nashriyoti 238-b.

N.T.Tojiyeva., Z.S.Elov., Voyaga yetmaganlarda sudga oid psixologik ekspertiza o‘tkazishning psixologik xususiyatlari. Pedagogik va psixologik tadqiqotlar. 2024 №1

faktlarni u tomonidan adekvat qabul qilinishi, eslab qolishi va so‘zlab berish imkoniyatlarini aniqlashdan iborat.

### **Foydalanilgan adabiyotlar royhati.**

1. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. T.: O‘zbekiston. 2016. 23-bet.
2. Elov Z.S. Yuridik psixologiya. Darslik. Buxoro-2023 Kamolot nashriyoti 486b
3. Elov Z.S. SUD-PSIXOLOGIK EKSPERTIZASI TARIXI VA RIVOJLANISH BOSQICHLARI (ilmiy manbalar tahlili asosida). Journal of Pedagogical and Psychological Studies 2 (1), 3-8. 2024
4. Tojiyeva N.T., Elov Z.S., Voyaga yetmaganlarga sudga oid psixologik ekspertizasini o‘tkazilishining psixologik xususiyatlari. 2024 ПЕДАГОГИК ВА ПСИХОЛОГИК ТАДҚИҚОТЛАР 1 (№1), 9-14
5. Elov Z.S. Sud-psixologik ekspertizalar o ‘tkazishning huquqiy va tashkiliy asoslari. 2024 TECHNICAL SCIENCE RESEARCH IN UZBEKISTAN 2 (2), 58-69
6. Elov Z.S. Sud psixologik ekspertizasi tarixi rivojlanish jarayoni bosqichlari. PEDAGOG RESPUBLIKA ILMIY JURNALI. 7 – TOM 4 – SON / 2024 - YIL / 15 – APREL. 306-313
7. M.A.Gafarova., Z.S.Elov. Inklyuziv ta’limda pedagog-psixlogning kasbiy psixologik xususiyatlari. PEDAGOG RESPUBLIKA ILMIY JURNALI. 7 – TOM 4 – SON / 2024 - YIL / 15 – APREL. 477-480
8. Z.Elov. Социально-психологические причины формирования девиантного поведения у подростков. Pedagogik mahorat. Ilmiy jurnal. 2024
9. Z.S.Elov. Zo‘ravonlik jinoyatlarini sodir etuvchi shaxslar toifasi psixologiyasi. Pedagogik akmeologiya. Ilmiy jurnal 5/3. 2024
10. Элов Зиёдулло, Я. САМИНЖОНОВ. Ўсмирлар орасида ўз жонига қасд қилиш ҳолати психологияк муаммо сифатида. 2024. Journal of Pedagogical and Psychological Studies 2 (2), 69-78
11. O.Mamatov., Z.Elov. Talabalarni bilish faoliyatiga motivlashtirishning psixologik va pedagogic asoslari. Journal of Pedagogical and Psychological Studies 2 (1), 37-42. 2024
12. Z.Elov. Identifikatsiya jarayoni muammosining psixologiyada o‘rganilishi. ZAMONAVIY PSIXOLOGIK TADQIQOTLAR INTEGRATSIYASI. Ilmiy konferensiya to‘plami. 2023
13. Z.Elov. O‘z joniga qads qilish masalasi jamiyat oldida turgan muhim ijtimoiy-psixologik muammo sifatida. 2023. Journal of Pedagogical and Psychological Studies 1 (12), 50-54
14. Z.Elov. Shaxsda fobiya holati va uning diagnostikasi. 2023. Journal of Pedagogical and Psychological Studies 1 (11), 66-74
15. Z.Elov. Suitsidial xulq-atvor haqida tahlillar va nazariyalar. 2023. Journal of Pedagogical and Psychological Studies 1 (10), 11-22
16. Z.S.Elov. Suitsidial xulq-atvorning zamonaivi psixologiyada o‘rganilishi: tahlillar va nazariyalar. 2023. Science and Education 4 (10), 326-342